




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, dastlabki
ma'lumot*




Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: 76-225-65-74

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda



Tarkibiy qism, foizda



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **19 394,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 13,0 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 526,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 152,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 17 867,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 606,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,3 %) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **19 394,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,0 %** ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **92,9 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **7,9 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,5 % ulush bilan 4 556,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,1 % ulush bilan 206,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Termiz sh. (118,6 %), Uzun (111,1 %), Qumqo'rg'on (114,0 %), Denov (113,0 %) va Angor (112,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Termiz sh. da qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	19394,6	113,0	1526,7	152,0	17867,9	110,6
Termiz sh.	4220,3	118,6	1039,1	180,7	3181,2	106,6
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	715,1	110,8	8,3	55,1	706,8	112,2
Angor	872,5	112,7	34,5	205,3	838,0	110,6
Bandixon	206,5	110,8	2,7	68,5	203,8	111,7
Boysun	772,7	108,4	4,9	41,6	767,8	109,5
Muzrabot	777,0	107,3	6,3	80,4	770,7	107,6
Denov	4556,7	113,0	253,4	189,7	4303,3	110,4
Jarqo'rg'on	1052,7	111,0	27,1	68,2	1025,6	112,9
Qumqo'rg'on	785,0	114,0	8,8	56,1	776,2	115,3
Qiziriq	755,1	110,7	5,8	45,9	749,3	111,9
Sariosiyo	744,1	107,6	7,9	23,7	736,2	111,9
Termiz	390,9	110,3	20,2	48,6	370,7	118,4
Uzun	774,0	114,1	20,3	163,2	753,7	113,2
Sherobod	1031,4	110,3	35,0	106,7	996,4	110,4
Sho'rchi	1740,6	112,2	52,4	100,8	1688,2	112,6



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **52,0 %** ga o'sdi va **1 526,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **17 867,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,6 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,1 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,4 %**), Qiziriq (**99,2 %**), Muzrabot (**99,2 %**) va Sariosiyo (**98,9 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**24,6 %**), Denov (**5,6 %**), Termiz (**5,2 %**) va Angor (**4,0 %**) tumanlarda kuzatildi.




AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 989,1** ming so'mni (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,4 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	6 989,1	110,4
Termiz sh	21 901,1	114,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	3 844,4	108,5
Angor	6 281,7	110,3
Bandixon	2 587,9	107,7
Boysun	6 396,6	106,4
Muzrabot	5 225,4	105,1
Denov	11 259,5	110,3
Jarqo'rg'on	4 586,8	108,6
Qumqo'rg'on	3 185,9	111,6
Qiziriq	6 282,1	108,3
Sariosiyo	3 380,9	105,3
Termiz	4 808,1	107,8
Uzun	4 266,5	111,8
Sherobod	5 053,5	107,9
Sho'rchi	7 897,5	109,6

Eng yuqori hajmga ega hududlar





Eng past hajmga ega hududlar



Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**21 901,1** ming so'm), Denov (**11 259,5** ming so'm), va Sho'rchi (**7 897,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 606,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **19,3** % ga oshdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 047,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **43,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 559,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **7,2** %) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2606,6	119,3	1047,3	143,6	1559,3	107,2
Termiz sh.	112,0	131,9	112,0	131,8		
tumanlar:						
Oltinsoy	236,1	116,9	53,9	128,9	182,2	113,7
Angor	118,5	111,7	81,7	136,3	36,8	79,6
Bandixon	126,2	111,0	5,7	74,0	120,5	113,6
Boysun	175,0	107,1	80,8	150,2	94,2	85,9
Muzrabot	290,9	108,7	78,8	131,7	212,1	102,1
Denov	264,6	111,2	159,9	170,3	104,7	72,7
Jarqo'rg'on	159,5	140,0	66,0	142,4	93,5	138,2
Qumqo'rg'on	224,8	138,1	78,4	144,5	146,4	134,9
Qiziriq	185,9	125,9	55,3	167,7	130,6	114,0
Sariosiyo	203,3	110,2	65,0	143,1	138,3	99,5
Termiz	67,2	103,6	10,9	188,7	56,3	95,2
Uzun	171,7	164,1	83,6	148,8	88,1	182,1
Sherobod	65,0	119,0	53,0	123,1	12,0	103,8
Sho'rchi	205,9	117,3	62,3	144,0	143,6	108,6

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **1 047,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **1 559,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda


* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 047,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**503,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 559,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **1 140,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **392,2** mlrd. so'mni, otlar **19,4** mlrd. so'mni, parrandalar **7,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0** % ni tashkil etib, **378,4** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **5,2** % ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,6** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	378,4	105,2	12,7	39,0	365,7	111,8
Termiz sh.	127,7	110,5			127,7	110,5
tumanlar:						
Oltinsoy	10,7	109,9			10,7	109,9
Angor	12,2	115,4			12,2	115,4
Bandixon	2,4	121,0			2,4	121,0
Boysun	8,2	120,4			8,2	120,4
Muzrabot	9,3	115,8			9,3	115,8
Denov	60,8	113,8			60,8	113,8
Jarqo'rg'on	23,3	108,4			23,3	108,4
Qumqo'rg'on	10,0	111,8			10,0	111,8
Qiziriq	7,5	113,8			7,5	113,8
Sariosiyo	15,2	37,6			15,2	112,5
Termiz	36,2	110,6	2,4	90,6	33,8	112,4
Uzun	19,5	181,5	10,3	3,6 m	9,2	117,2
Sherobod	22,5	106,7			22,5	106,7
Sho'rchi	12,9	111,4			12,9	111,4


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5 261,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **30,5 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **1 206,1** mlrd. so'mni (**80,1 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	5261,7	130,5	1206,1	180,1	4055,6	120,7
Termiz sh.	1548,2	102,9	201,8	62,3	1346,4	114,0
tumanlar:						
Oltinsoy	87,2	113,6	23,6	69,8	63,6	148,0
Angor	112,8	113,5	0,2	43,4	112,6	113,7
Bandixon	26,8	110,3		9,1	26,8	111,6
Boysun	58,8	101,9	1,7	116,6	57,1	101,5
Muzrabot	61,8	101,1	29,8	80,3	32,0	133,3
Denov	1464,6	120,1	96,6	87,8	1368,0	123,3
Jarqo'rg'on	326,0	114,9	40,7	115,8	285,3	114,8
Qumqo'rg'on	359,6	395,5	281,9	7,2 m	77,7	150,4
Qiziriq	39,8	124,1	0,1	2,8	39,7	131,8
Sariosiyo	308,1	243,6	170	54,1 m	138,1	112,0
Termiz	320,7	139,4	29,2	133,3	291,5	140,1
Uzun	90,9	192,7	26,9	52,0 m	64,0	137,1
Sherobod	108,9	2,7 m	54	45,6 m	54,9	142,9
Sho'rchi	347,5	2,5 m	249,6	4,2 m	97,9	127,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Sariosiyo (**5 407,7 %**), Uzun (**5 202,8 %**), Sherobod (**4 557,1 %**), Qumqo'rg'on (**717,5 %**) va Sho'rchi (**417,2 %**) tumanlarida kuzatildi.